

**Xaitov Bahodir Tursunovich**  
**Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasini katta o‘qituvchisi**

---

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – YUKSAK MA’NAVIYATLI DAVLAT ARBOBI

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada shoh va shoir, buyuk sarkarda, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati qisqacha bayon etilgan. Mirzo Boburning qisqa umri davomida amalga oshirgan keng ko‘lamli islohotlari, qoldirgan beba ho ilmiy-ma’naviy merosining gultoji bo‘lgan “Boburnoma” asari bugungi kungacha o‘zining qiymatini yo‘qotmasdan kelmoqda. Maqolada uning faoliyati, murakkab sharoitlarda tezkor va to‘g‘ri qarorlari orqali o‘z qo‘sishini ruhlantira olganligi va g‘alabalarga boshlay olganligi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tarixiy meros, Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, buyuk sarkarda, davlat arbobi, qo‘sining ruhiy holati, shijoat.

---

Ma’lumki, mamlakatimiz qadimdan alloma-yu mutafakkirlar, olim-u fozillar diyori hisoblanadi. Bu hududdan jahon ilm-fani ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘sghan Abu Nasr Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari qomusiy allomalar, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Imom Moturudi, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abu Mu’in Nasafiy kabi mutafakkirlar, To‘maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mard va jasur sarkardalar yetishib chiqdi.

Bebaho yurtimiz madaniyat, san’at, me’morchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq markazi sifatida barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” [1-29].

Bugungi tahlikali zamonda harbiy sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarini, ayniqsa, harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Chunki ular mamlakatimizning tinchligi, chegaralarimizning daxlsizligi, yurtimizning osmonini musaffo saqlash yo‘lida faoliyat olib boradilar. Ularning tarbiyasida yo‘l qo‘ylgan xato va kamchiliklar, bir kun kelib Vatanimiz taqdirini, xalqimizning tinchligi va xavfsizligini xavf ostida qoldirishi mumkinligini esdan chiqarmasligimiz lozim. Shuning uchun ham ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, o‘z kasbining sir-asrorlarini puxta egallagan, erkin va mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlar sifatida voyaga yetkazish yo‘lida tizimli faoliyat olib borish darkor.

“Harbiy xizmatchilarini harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy san’atni rivojlantirishga qo‘sghan hissasini chuqr o‘rganish muhim ahamiyatga ega”, degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev [2-171].

Sharq mutafakkirlari orasida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta hayotiy muktab vazifasini o‘taydi. Harbiy-

vatanparvarlik mavzusi Boburning hayoti misolida o‘zining har jihatdan amaliy ifodasini topgan. Bobur shaxsi va hayotini o‘rganish yoshlarda yurt mudofaasi, Vatan sarhadlarini himoya qilish oliy burch ekanligini anglashga yordam beradi. Ularda oriyat, sadoqat, g‘urur, mardlik, jasorat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

“Boburnoma”da muallifning sarkarda, shoh va shoир sifatidagi siymosi yaqqol bo‘y ko‘rsatib turadi. Ayniqsa, uning sarkarda sifatidagi fe'l-atvori, ruhiyati, Vatan taqdiri uchun chekkan zahmatlari, uning siyratidagi mardlik tuyg‘usi avlodlarga o‘rnak bo‘lishga arziyidigan sifatlardir. Darhaqiqat, Boburning dovrug‘ini dunyoga yoygan eng katta omil bu uning harbiy san’ati va sarkardalik mahoratidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag‘lubiyatlarning achchiq alamlariyu, zafarlarning ulug‘vor nashidalarini surishni ko‘p marotaba o‘z boshidan kechirdi. Otasi singari ulug‘ himmatli va oliy maqsadli shaxs bo‘lganligidan Farg‘ona viloyatini kichik joy deb hisoblab, Samarqandga intildi. U yerda Shayboniyxonadan yengilib Kobulga keldi va keyin Hindistondek bepayon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug‘ bunyodkorlik an'analarini davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog‘-rog‘lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi. Hindistonning buyuk donishmand farzandi, davlat arbobi Javohirla'l Neru o‘zining “Hindistonning ochilishi” va “Jahon tarixiga bir nazar” asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to‘liq ushbu fikrlarni izhor etgan: “Bobur – dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo‘lgan. Bobur o‘ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san’at va adabiyotni sevardi.

Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSH sharqshunos tarixchi olimlar diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduard Xolden, avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: “Bobur fe'l-atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigelikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan” [3-4].

Bobur Mirzo o‘z davrining yetuk sarkardalaridan edi. Jang olib borish taktika va strategiyalarini yaxshi o‘zlashtirgan. Qo‘sinni asrab-avaylash, uni ruhlantirish jangda muvaffaqiyat keltirishini anglab yetgan.

1504-yilda Afg‘oniston yurishi o‘tkazilar ekan, lashkar ancha og‘ir sharoitda qoldi. Chunki, qo‘sish kam sonli bo‘lib, atrofda hujum qilishga shay turgan dushman galalari izg‘ib yurar edi. Kam sonli qo‘sish yurishni davom ettirar ekan, qorong‘u tushganda mustahkam qo‘rg‘onlar yo‘qligi tufayli ochiq dalalarda tunashga to‘g‘ri kelar edi. Shunday paytlarda dushmanning qo‘qqisidan qilgan hujumi natijasida qirilib ketmaslik uchun hozirgi harbiylar tili bilan aytganda “patrullar” qo‘yilardi.

“U yurishda ko‘p ehtiyojkorlik qilinardi, shuning uchun hech ish qila olmadilar. Shunday ehtiyojkorlik qilinar ediki, jangovar safning o‘ng qanot, chap qanot, markaz, hujumchi qismlarining har qaysisi o‘ziga tegishli joyda turib, har bir qismning qurollangan guruhlari o‘rdaning atrofidagi chodirlardan bir o‘q otimi yiroqroqqa piyoda chiqib, butun kecha o‘scha yerdarda qolar edi. Har kecha shu yo‘sinda cherik elining hammasi navbatma-navbat chiqarilardi. Ichki kishilarimizdan uch-to‘rttasi mash‘al ko‘tarib har oqshom navbat bilan aylanib kelardi” [3-118].

1506-yilda Hirotdan Kobulga qaytishda qishda dovonda qor bo‘roniga duch keladi. Yo‘l mashaqqatlari va qiyinchiliklari hammani holdan toydiridi.

“Bir haftaga yaqin qor tepib, kunda bir-bir yarim shar’iydan ortiq ko‘chilmas edi. Qor tepar kishi men edim, o‘n-o‘n besh ichki yaqinlar va Qosimbek edi... Qolgan barcha yigitlar va bek atalganlar otlaridan ham tushmay, tayyor tepilgan va bosilgan yo‘lga kirib, boshlarini quyi solib kelishardilar. Kishiga biror narsa taklif qiladigan yoki zo‘rlik qilish payti emas edi. Har kimning himmat va jur’ati bo‘lsa, bunday ishlarni o‘zi tilab qiladi.

“Shu usul bilan qor tepib, yo‘l qilib Injukon degan yerdan uch-to‘rt kunda Zarrin dovonining tubiga – Havoli Qutiy degan g‘orga keldik. Ana shu kuni qatti bo‘ron bo‘lib qor yog‘ardi. Barcha o‘lim vahimasiga tushdi...

Men g‘orning og‘zida kurak olib, qor kuradim, qorni ko‘ksimgacha qazidim, sira yerga yetmasdi. Biroz shamoldan pana bo‘ldi, o‘sha yerda o‘tirdim.

Har qancha: „G‘orga kiring” deyishsa ham kirmadim. Barcha el qorda va bo‘ronda, men issiq uyda va istirohatda o‘tiramanmi deb o‘yladim. Munda barcha el tashvish bilan mashaqqatda, men munda uyqu bilan farog‘atda bo‘laymi?! Bu muruvvat va hamjihatlikdan yiroq ishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa, turayin. Bir forsiy maqol bor: “Do‘sstlar bilan birga bo‘lgan o‘lim – to‘ydir” [3-149].

Shunday murakkab vaziyatda Bobur o‘z hayotini o‘ylamasdan, shohlik da’vo qilmasdan, oddiy insonlardek qor tepib yo‘l ochishi, qor va sovuqdan jonini asrash uchun g‘orga kirishni xohlamagani “do‘sstlar bilan birga bo‘lgan o‘lim – to‘ydir” deb xulosa qilishi har qanday hukmdor yoki sarkardaning jasorati yetadigan ish emas. Zero, Boburning nafaqat yaqinlari, balki dushmanlarining ham hurmatini qozonishi, xuddi shu kabi jasoratlaining odatiy hol ekanligidadir balki.

Zahiriddin Bobur odamlar ruhiyatini, ayniqsa, o‘z yaqinlari, askarlar psixologiyasini naqadar chuqur bilgani ko‘p jihatdan uning harbiy g‘alabalarini ta’milagan edi.

Bobur Hindistonga 11,5-12 ming kishilik qo‘sish bilan borgan edi. Hindistonda u olib borgan dastlabki katta janglardan biri Dehli yaqinida Ibrohim Lo‘diy qo‘smini bilan bo‘lgan. Ibrohim Lo‘diy qo‘shindan 100 mingdan ortiq askar, mingdan ortiq jangovar fili bor edi. Lekin, tarix guvohlik berishicha, har doim ham jangning natijasini askarlarning miqdori, hatto jang fillari ham hal qila olmaydi. Aksincha, g‘alaba taqdiri ko‘proq qo‘sish ruhiyatiga, sarkarda mahoratiga va tadbirdorligiga bog‘liq bo‘ladi. Dehli yaqinidagi jang esa bunga yaqqol misoldir.

Ibrohim Lo‘diy katta iqtisodiy va harbiy qudratga ega edi. Raqibining nafaqat boyligi va qudratli qo‘shinini, balki ruhiyatini ham chuqur tahlil qilgan Bobur uni yengish mumkin, degan xulosaga keladi. Chunki, Ibrohim Lo‘diy tabiatan juda xasis bo‘lib atrofidagilar, lashkarboshilar, askarlar undan norozi edilar. Xasislikdan tashqari Ibrohim Lo‘diy tadbirdsiz, shijoatsiz va g‘ayrrotsiz edi. Buni chuqur ilg‘agan Bobur Lo‘diyga qarshi jang boshlashga qaror qiladi. Holbuki, uning qo‘shindan barcha askarlar va xizmatchilarini qo‘shib hisoblaganda o‘n ikki ming kishi atrofida edi.

Shunday qilib Bobur o‘n mingdan ortiqroq askar bilan Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini tor-mor keltirdi, juda ko‘p o‘lja va asirlarni qo‘lga kiritdi. Boburning o‘z davrining buyuk sarkardasi ekanligini ushbu jang ham tasdiqlaydi.

Shuningdek, 1526-yil hind rojası Rano Sango bilan bo‘lgan jang tasviriga katta o‘rin ajratilgan. Rano Sango qo‘smini Bobur qo‘snidan son jihatidan ancha ustun, yaxshiroq qurollangan edi. Buning ustiga hind qo‘snidan ko‘plab jang fillari bor edi. Bu holat jangdan oldin Bobur askarlarining ruhi tushib ketishiga sabab bo‘ladi. Kitobda qo‘shtining shu paytdagi ruhiyati quydigicha tavsiflanadi:

“... Kattayu kichikda qo‘rquv va xavotir oshdi. Hech kimdan mardona so‘z va shijoatli fikr eshitilmasdi. Na so‘zamol vazirlar va viloyat so‘rayotgan amirlarning na so‘zlarida, na tadbirlarida mardonalik bor edi, na o‘zlar va qarorlarida himmat bor edi” [3-234].

Qo‘shtining ruhiyatining pasayishiga, odamlardagi g‘ayrat va shijoatning yo‘qolishiga ayrim shaxslarning o‘rni ham bo‘lgan. “Bu paytda bo‘lib o‘tgan voqe-hodisalar, bekorchi gap-so‘zlardan, yuqorida aytib o‘tganimizdek, lashkar xalqining xavotir va vahimasi yanada oshgandi.

Muhammad Sharif munajjim shumnafas menga aytolmayotgan bo‘lsa-da, yo‘lida duch kelganodamga: shu kunlari Mirrix g‘arb tomonda turibdi, kimki shu tarafdan turib urush qilsa – yengiladi, deb mubolag‘alar bilan ishontirishga urinardi.

Bunday shumnafas nima desa, dedi. Qo‘rqib ruhi tushib ketgan xalqning ko‘nglini badtar sindirdi. Uning bunday bekorchi gaplarini eshitib ham o‘tirmay, qilayotgan ishlarimizni to‘xtatmay, urushga astoydil tayyorlanib, jangga shay bo‘lib turdik [3-232].

Oxiri, odamlarning bunday qo‘rroqlik va sustliklarini ko‘rib, bir reja o‘ylab topdim. Barcha bek va yigitlarni chaqirib shunday dedim:

„Beklar va yigitlar!

Hayot majlisiga kirgan odamning har biri oxir-oqibat ajal qadahidan ichadi va tiriklik manziliga kelgan har bir kishi oxiri dunyo g‘amxonasidan kechib ketadi. Yomon nom bilan tirik yurgandan, yaxshi nom bilan o‘lgan afzal [3-232].

Boburning bu otashin nutqidan ruhlangan beklar va askarlar qo‘lga mushafni olib g‘alabagacha jang qilishga qasam ichadilar. Bobur qo‘llagan bu tadbir bir tomondan, beklar va askarlarning ruhini ko‘tarib yuborgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning xabari dushman askarlariga yetib borgach ular orasida sarosima va tushkunlik boshlanadi.

Yuqorida keltirilgan misol va tahlillar Boburning ulkan sarkarda sifatida shuhrat topishi, qo‘shtinni o‘z zamonasi uchun ilg‘or harbiy texnika bilan ta’minalashga harakati va bunga erishgani, harbiy strategiyani va ayniqsa taktikani rivojlantirishga jiddiy e’tibor bergani, askarlarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash doim uning diqqati markazida bo‘lgani tufayli ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Boburning favqulodda zehn va zakovat egasi ekan, taxtga o‘tirishdan avval ham, taxtga o‘tirgandan keyin ham zahmatkash bo‘lgani, inson ruhiyatini chuqur bilgani uning dunyoda xassos shoir, zukko olim va mohir sarkarda sifatida nom qoldirishiga sabab bo‘ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tabiatidagi vatanparvarlik, insoniylik, har qanday murakkab vaziyat va qiyinchiliklar oldida bosh egmaslik, safdoshlarini asrab-avaylash kabi tuyg‘ular har doim yoshlarni, ayniqsa bo‘lajak ofitserlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom, harbiy-vatanparvarlik sifatlari yuksak Vatan himoyachilari sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, yoshlarimizga Zahiriddin Muhammad Boburning nafaqat bosib o‘tgan murakkab yo‘li balki, harbiy sohada erishgan yutuqlari, qo‘llagan strategik rejalar hamda taktikalari, yozib qoldirgan ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rgatish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom, –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-tom, –T.: “O‘zbekiston”. 2018.
3. Boburnoma. –T.: “O‘qituvchi” NMIU. 2008.
4. B.Xaitov. “Bobur siyemosiga nazar” // Zirhli qalqon ilmiy–axborot jurnali № 2 (5) 2021 iyun. B.203-206.
5. B.Xaitov. “Zahriiddin Muhammad Bobur merosining harbiy kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati”. “Jahongashta Zahriiddin Muhammad Bobur ilmiy merosining xalqaro miqyosda o‘rganilishi va uning ahamiyati” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya to‘plami. 2022-yil 12-fevral. B.417-422.
6. Q.Usmonov va b. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2016.
7. M.Rahimov, A.Zamonov. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Fan”, 2019.